

# TONG YULDUSI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

Nº 8(66341)  
2002 yil 22 fevral, juma


Sotuvda erkin narxda

Davlatimiz tomonidan 2002 yilni «Qariyalarni qadrlash yili» deb e'lon qilingani juda yaxshi bo'ldi-da. Biz bolalar doimo kattalarni hurmat qilishimiz, ularni e'zozlabb, qadrlashimiz shart.

Oilada buvi va buvalarimiz bo'lsa, xonadonimiz fayzli bo'ladi. Baraka kirib keladi. Shuning uchun ham donishmand xalqimiz «Qarisi bor uyning parisi bor» deb bejiz aytmagan.

Siz suratda ko'rib turgan bobo - Tojiyev Mirsamig' Hoji ota bo'ladi. Bu yil bobo sakson yoshti qarshilaydilar.

Ularning o'n bir



Bobo doimo ular davrasida bo'lganlarida «Mehnat insonni

mabaynida dehqonchilik bilan shug'ullanib, kam bo'limadilar.

«Kichkintoy» ko'rsatuvining boshlovchisi. Nilufarning ijod qilishi uchun oilada dadajonisi Suyun akaning xizmatlari juda katta. Bu ajoyib qizalog'imiz yaqinda Toshkent shahriga tashrif buyurib, O'zbekiston televideenisida namoyish etiladigan «Oltin toj» ko'rsatuvida

g'olib bo'lib, o'z shahriga

**Bugunning bolasi** Talant ham, Olloham tomonidan berilgan in'om desak mubolag'a bo'limasa kerak. Biz



yumushlarida onajonisining beminnat yordamchisi. Mushtdekkina joniga yana nimalami biladi dersiz. Yana-mi?

sizlarga tanishtrimoqchi bo'lgan qizimiz ham ana shunday iste'dod egasi. Nilufarxon Jumanova 1992 yilda Qarshi shahrida tavallud topgan. Hozirgi kunda Qarshidagi Nodirabegim nomi bilan atalgan litsey gimnaziyaning 4-sinfida a'lo baholarga o'qimoqda. Avval boshda ta'kidlaganimizdek, Nilufarxon ham tug'ma qobiliyatga ega. Darsdan bo'sh paytlarida she'rlar, hikoyalari mashq qiladi. Undan tashqari Qarshi televideenisida h a m

## VATAN

Bulbul sevar chamanni, Biz sevamiz vatanni. Ozod va go'zal diyor, Buzlar unda baxtiyor. Tuprog'ini zar, deymiz, Har toshni gavhar deymiz. Bog'i eram bog'larin, Shifobaxsh buloqlarin. Mevalari lazzat, bol, Quchog'ida baxt- iqbol. Tinch, musaffo osmoni, Tog'lar mangu posboni.

## MOSH BILAN BO'YNOQ

Qiziq, Mosh bilan Bo'ynoq. Bo'lolmas sira o'rtoq. Bir-birini ko'rgan on, Boshlanadi to'polon. Bo'ynoq quvar, qochar Mosh, Hamma hayron, chayqar bosh. Qaydan shuncha adovat? Axir bu qanday holat? Yaxshimi urish -talash? Bir-birini yumdalash? Sinfimizda Esh va Tosh, Biri Bo'ynoq, biri Mosh. Ularda ham shu holat,

Poliz ekinlaridan qovun, tarvuz yetishtirib, xalqimiz dasturxonini bezaganlar.

Hoji ota farzandlari, nabira-yu evaralari bilan suhbat qurar ekanlar, hadislaridan, rivoyatlaridan so'zlaydiilar. Tinchligimiz, xotirjamligimiz naqadar ulug' ne'mat ekanligini ta'kidlaydilar. Muqaddas zaminimiz hamisha tinch, bolalarimiz bilimdon bo'lsin, deydar.

Biz bolalar ham o'z navbatida ota-onalarimiz, bobo va momolarimiz omon bo'lsinlar, deymiz.

*Iskandar ODILOV,  
Toshkent shahar,  
Hamza tumanidagi  
206- maktabning  
6- sinf o'quvchisi.*

Prezident asarlarini  
o'rganamiz  
МИЛЛИЙ

ИСТИҚЛОЛ ГОЯСИ:  
АСОСИЙ ТУШИНЧА ВА ТАМОЙИЛЛАР

«Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urodalariiga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'tida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xayf sisatida saqlanib qolishi muqarrar.

Shu ma'noda, bunday xavf-xatarlarga qarshi asosiy qurol sisatida yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir».

*Islom KARIMOV.*

## SO'Z BOSHI

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma'naviy-mafkuraviy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Mustaqil taraqqiyot yillarda to'plangan tajriba, dunyo jamoatchiligi o'zbek modeli deya e'tirof etgan o'zimizga xos va o'zimizga mos taraqqiyot yo'li — kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarish va yangilanishlar yurdoshlarimiz qalbi, ongi va shuuriga ulkan ta'sir ko'sratmoqda.

Oldimizga qo'yan olyjanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shilq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yet g'oyalarning xurujidan himoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda.

O'zining hayotini, oldiga qo'yan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura bo'limasa, har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar.

*(Davomi kelgusi sonlarda)*

## LIBOSLAR MA'QUL BO'LSA

Mening ismim Xolida. Men Sardoba qo'rg'onida joylashgan 16- matabning 8- sinfida o'qiyman. Oilada ikkinchi farzandman.

O'qishlarim ham yomon emas. Bo'sh vaqtlarimda she'rlar yozib turaman, rasm chizishni xush ko'raman. Tikuvchilikka qiziqaman. Badiiy kitoblar o'qishni yaxshi ko'raman. Shuning uchun ham uyimiz qarshisida joylashgan kutubxonaga a'zoman. U yerdagi qiziqarli kitoblarni birma-bir o'qib chiqayapman. Bundan tashqari kutubxonaga kelgan ko'plab gazeta va jurnallar bilan ham tanishayapman.

Kelajakda rassom- modelyer bo'lishni xohlayman. Men tikkan liboslar ko'pchilikka ma'qul bo'lsa, deyman.

Osmondagi yulduzlarga  
Qarab xayol suraman.  
Kelajagim o'ylab asta,  
Xayollarga cho'maman.

Xolida MAMIROVA,

Sirdaryo viloyati, Oq oltin tumanidagi 16- matabning 8- «B» sinf o'quvchisi.

## MAKTABIM QADRDONIM

Maktabimiz 900 nafar o'quvchiga mo'ljallangan. Ayni paytda 850 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi. O'quvchilar tuman, viloyat tadbirlarida qatnashib, ko'plab yutuqlarga erishgan. Maktabimiz tuman bo'yicha o'tkazilgan fan olimpiadasida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Bu esa albatta talabchan ustozlarning mehnati evazigadir. Ustozlarimizning barchasi o'z fanining ustasi. Ularning darslari juda qiziqarli o'tadi.

Ayniqsa ona tili o'qituvchisi N. Hamdamova, tarix o'qituvchisi J. Nasrullayeva va mehnat o'qituvchisi Hurmat opa Shodiyevalarning darslari juda yoqadi.

Maktabimizda sportga ham katta e'tibor beriladi. Sport turlaridan voleybol, bosketbol, futbol, shaxmat, shashka musobaqalarida faol ishtirot etamiz. Ayni paytda viloyatda o'tadigan olimpiadaga tayyorgarlik ko'rilyapti.

Men o'z gazetam orqali ustozlarimga rahmatlar aytib, tengdoshlarimga bo'shashmang, deyman.

Shahnoza SAFAROVA,  
Navoiy viloyati, Navoiy tumanidagi  
X. Eganova nomli 9- matabning  
10- «B» sinf o'quvchisi.

## HAQIQIY HAYVON O'RGATUVCHIMAN

Yaqinda Toshkent Davlat sirkiga bordik. U yerda ajoyib tomoshalar bo'lib o'tdi. Eng zo'ri esa bolalar o'zlarining jasurligini sinab ko'rganlari bo'ldi. Ular haqiqiy parashutchilar, akrobatchilar kabi havoga ko'tarildilar. Balandlikda turib turli mashqlarni bajardilar. Yana o'rgatilgan hayvonlar bilan o'ynab, aravalarga, ot va tuyalarga minishdi. Tomoshabinlar esa bolalarni olqishlashdi. Sirkka tashrif buyurgan chet el mehmonlari ham bizning o'zbek bolalarining epchilligiga hayratlandilar. Men ham hamma «tryuk»larni joni dilim bilan bajarib ko'rdim. Do'stlarim Jasur va Baxtiyor bilan, hattoki hayvonlar bilan suratlarga ham tushdim.

Azizbek MIRSODIQOV,  
Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi  
98-matabning 8- sinf o'quvchisi.

## MUQADDAS DARGOH

Vatan men uchun qanchalar muqaddas ekanligini ta'riflab berishga tilim ojizlik qiladi. Vatan mening onam. Vatan mening jonim, ko'zimning gavhari. Ana shu tuproqning farzandiman. Shu tuproq uchun jonimni ham berishga tayyorman. Bu balandparvoz gaplar emas. Yuragimning tububidagi gaplardir.

O'z vataniga sodiq qolganlar qancha. Bu kabi insonlarni biz doimo mehr bilan tilga olamiz. Ularga o'xshagimiz keladi. Biroq, oramizda o'z vataniga xiyonat qilganlar ham topiladi. Biz ulardan nafratlanamiz. Bizning oramizda vatanfurushlarga joy yo'q. Shunday ekan, keling aziz tengdoshlar, o'z vatanimizni asrab- avaylaylik. Unga doimo sodiq qolaylik.

Saodat NAZAROVA,  
Samargand viloyati, Narpay tumanidagi  
59- matabning 6- sinf o'quvchisi.



## MUCHAL TO'YGA MARHAMAT

Sinfimizda muchal to'yi nishonlandi. Ushbu bayramimizni ko'ngildagidek o'tkazishimizda ustozimiz qatori yuqori sinf o'quvchilarining ham hissasi katta bo'ldi.

Quvnoq she'rlar yod oldik, kichik sahna ko'rinishini tayyorladik. Xillas, barcha sinfdoshlarim faol ishtirot etdi. Nazarimda bayramimiz ustozlarimizga va maktabdoshlarimizga ma'qul bo'ldi.

O'tkazilgan muchal to'yimiz orqali biz ko'p narsalarni bilib oldik. Buning uchun ustozlarimizga rahmat.



Xumora NAZAROVA,  
Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi  
7- umumta'lim matabining  
6- «A» sinf o'quvchisi.



Mutaxassislarning fikricha, XXI asr axborot asri bo'ldi. Jamiyat hayotiga chuqur kirib borayotgan internet yanada rivojlanadi. Internet hozir dunyodagi 150 millionga yaqin shaxsiy va professional EHM axborotni birlashtirib turuvchi, yer yuzining istalgan nuqtasida turib, xohlagan ma'lumotni olishga imkon beradigan vositadir. Kompyuter g'oyasi bundan ming yillar avval Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan. Kompyuterning ishlash yo'llari buyuk o'zbek olimi Muhammad al-Xorazmiyning «Hisob al-jabr va al-muqobala» asarida bayon qilingan ta'limotlarga asoslangandi. O'rta asrlarda Samarcanddagi Ulug'bek rasadxonasi bu yerda bajarilgan ishlar va ularning natijalari tufayli «Dunyodagi birinchi hisoblash markazi» deb e'tirof etilgan. Birinchi avtomatik sonli hisoblash mashinalari o'tgan asrning o'rtalarida yaratildi. Shundan keyin EHMlarning besh avlodini dunyoga keldi.

Hozirda internetdan foydalanuvchilar soni AQShda 55 million, XXRda 50 million, Yaponiyada 8 milliondan oshgan. O'zbekistonda ham internetdan foydalanuvchilar soni yuz mingdan oshib ketdi. U, ayniqsa maktab o'quvchilari orasida katta qiziqish uyg'otmoqda.

O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 2001 yilda qabul qilgan «Internetning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishni ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori mamlakatimizning xalqaro miqyosda o'z mavqeiga munosib joy egallashi uchun xizmat qiladi. Al-Xorazmiy avlodlari uddaburrolik bilan bir lahzada qit'adan-qit'aga, bir mamlakatdan ikkinchisiga o'tib, ko'zguli quticha ichidan kerakli a x b o r o t , ma'lumotlarni topib


olmoqdalar.

Xabaringiz bor, o'tgan yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti yigirmata savol bilan dunyo bolalariga murojaat qilgan edi. Mazkur tanlovida ishtirot etgan mingdan ziyod o'zbekistonlik bolalardan to'qson nafari g'olib deb topildi. Toshkentdag'i ingliz tiliga ixtisoslashgan 17 - matabning 9 - sinf o'quvchisi Diyorjon Xo'jayev ham g'oliblik nashidasini surish nasibetgan baxtli bolalardan biri. U 3-sinfda o'qib yurgan chog'laridanoq kompyuterda ishlab, internetga ulangan. Xalqaro tanlovdan xabar topgach, BMTning O'zbekiston da g'i vakolatxonasidan savollar

anketasini oldi va Angliya elchixonasiga qarashli kutubxonadagi kitoblardan, internetdan foydalani, BMT tarixi, uning tizimi, xalqaro shahobchalariga oid birmuncha murakkab savollarga javob topib, okean ortiga yo'lladi. Yoz oyida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining yo'llanmasi bilan Italiyada safarda bo'ldi. Uyiga qaytgach unga ajoyib sovg'a - BMT Bosh kotibi Kofi Annandan uning nomiga kelgan

xatni tutqazishdi. Maktubning mazmuni quyidagicha edi:

**«Azizim Diyor Xo'jayev!»**



*Men mumnuniyat bilan sening BMTning Toshkentdag'i Axborot markazi hamda BMTning yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan*



**«Jajji go'zal»**

yorqin chechaklari yangraydi.

Uning zehni o'tkir. Bir marotaba o'rgatgan narsani takrorlash shart emas. Butun vujudi, qalbi bilan kuylaydi. Uning ijrochilik mahorati respublikada o'tkazilayotgan

*uyushtirilgan BMTga bag'ishlangan viktorinada muvaffaqiyyatli qatnashgan bilan tabriklayman. Dunyoda BMT, uning roli, vazifalari haqida sen kabi ko'p narsa biladigan yoshlar borligidan xabar topib, benihoyat xursand bo'ldim. Sen va sening do'stlaring tufayli men boshqarib turgan tashkilotning istiqboli porloqligini sen va sen kabi yoshlar bizning umumiyyatishimizni davom ettiradilar,*

*de gan ishonchimni mustahkamlaydi. Bosgan qadamning qutlug' bo'lsin!*

*Kofi A. ANNAN*

*Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi».*

Diyorjonning bunday baxtdan quvonchi ichiga sig'mas edi. Birinchi bo'lib otasi Bahodirjon, onaizori Ziyoda opa, akasi Boburjon, do'stleri samimiyl qutlashdi. Xalqaro tashkilot vakolatxonasi uni sport kiyim-boshlari, BMT haqidagi kitoblar, turli sovg'a-salomlar bilan taqdirladi.

- O'g'limizning «Internet»ga bu qadar chuqur kirib ketganini sezmay ham qolibmiz», deydi hayajonlanib Ziyoda opa. Kutubxonalarga borib, kitoblar



titib, kompyuter yonida bir necha oy qadalib o'tirib, o'zidan katta yoshlilar bilan bellashayotganidan bexabar qolibmiz. O'rganganing o'zingga foyda, deganlaridek, farzandimizning mehnati zoye ketmasdan g'oliblar safidan joy olib, eng nufuzli xalqaro tashkilot rahbari nomidan tabrik olgani bizga bir olam quvonch bag'ishlaydi...

Diyorjon matabda barcha fanlardan yaxshi va a'lo baholarga o'qiydi, xulqi ham yaxshi. Ustozlari u haqida doimo faxrlanib gapireshadi. U har kuni kamida ikki soat kompyuterda ishlaydi. Internet orqali AQSH, Angliya, Germaniyada yashovchi tengqur do'stleri bilan bog'lanib gaplashadi. Insoniyat kelajagi bolalarnikidir. Zero, dunyo bolalari birlashsa, insoniyat zavol ko'rmaydi.

*Mirzo Anvar KARIMOV,  
Tarix fanlari nomzodi,  
O'zMU dotsenti.*



to'g'ri kelgan edi. O'shanda olti yoshli Gulhayo tanlov g'olib bo'lgandi, - deydi ko'rsatuv muallifi va rejissori G. Parmonova. - Uning ziyrakligi va dunyoqarashining kengligi, hozirjavobligi atrofdagi tengdoshlaridan ustun kelgandi. Tanlovida Gulhayo «Jajji go'zal»

tadbirlarda ham yaxshi baho oldi.

- «Jajji go'zal» ko'rsatuvining birinchi soni Navro'z bayramiga

deb nomlangan qo'shiqni ijro etib, shu nomni olgan edi.

Mano to'rt yillarda, bizning jajji go'zalimiz shu ko'rsatuvga boshlochilik qilib kelmoqda.

Gulhayo san'atga, til o'rganishga, fanlarga bo'lgan mehrini birdek e'zozlaydi. Har bir ishga ulgurishga harakat qiladi.

- Kun tartibimni belgilab olganman. Bo'sh vaqtimda kompyute r savodxonligidan saboq olyapman. Uyda singlim Nilufar va Sevara bilan qo'shiq aytib, raqsga tushamiz. Ingliz va fransuz tillarini birlashib qunt


bilan o'rganyapmiz.

Yutuqlarimning barchasi uchun ustozlarimga rahmat aytaman. Ularning ishonchi menga hamisha qanot bag'ishlaydi.

Darhaqiqat ustozlar ishonchi shunday qudratki, u barcha to'siqlarni, mashaqqatlarni yengadi. Oliy maqsad sari yetaklaydi.

Izlanishingda, o'qib-o'rganishingda senga omad yor bo'lsin, Gulhayo.

*Dilfuza SHOMALIKOVA.*



Angliyada ham qushlarni sevishadi.



Qo'shiq aytish jonu dilim.

«Tong yulduzi» kunlarini o'tkazish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif buyurganimizda qalbimizni hadik egallagan edi. «Qo'ng'iroq qilib, avvaldan ogohlantirmadik-da, - deydi bosh muharrir Umida opa,- bir tomonidan ortiqcha dab-dabuning nima keragi bor,

bo'ldi. Bizni xalq ta'lmi vazirligi umumiy o'rta ta'lmi boshqarmasi boshlig'i Maxsitboy Xalqazarov xuddi eski qadrondini ko'rgandek juda samimi qarshiladi. Vaqtan

vazifalarni, Respublika Hukumatining ta'lrim sohasidagi islohotlarni jadallashtirishga yo'naltirilgan qaror va

bermoqda. Xalq ta'lmi vazirligi tasarrufida 2000/2001 o'quv

ko'rik-tanlovlari har yili muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda va o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Hozirgi paytda

# JASXUN OSHA KELDITK

unumli foydalanib, ulardan Respublika xalq ta'lmi borasida suhbatlashdik.

-Yil mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'lmi vazirligiga boramiz»... Haqiqatan ham Nukus shahrining markazida joylashgan vazirlikka kirib borar ekanmiz, yuqoridaq hadik quyosh chiqqanda tarqaydigan tuman misoli g'oyib



farmoyishlarining ijrosini ta'minlash borasida muayyan ijobiy ishlarni amalga oshirdilar, dedilar Maxsit og'a. -Joriy 2001-2002 o'quv yilida Respublikamizda 763 umumta'lum maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. 389 ta maktabgacha tarbiya muassasalarida 30793 nafar bolaga 3218 tarbiyachi ta'limgartarbiya bermoqda. Bundan tashqari bitiruvchi sinf o'quvchilarini oliv o'quv yurtlariga tayyorlash va ularning bilim samaradorligini yaxshilash maqsadida keyingi yillari ixtisoslashtirilgan maxsus sinflar va maktablarning soni yildan yilga oshib bormoqda. O'quvchilarning tayyorlanishi uchun maktablarda test markazlari tashkil etilgan.

Mazkur o'quv yilida umumiy o'rta ta'limgartarbiya muassasalarida 376592 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Ularga 37208 nafar pedagog ta'limgartarbiya

yilida 48034 tarbiyalanuvchi o'ringa mo'ljallangan 389ta bolalar bog'chasi mavjud bo'lib, ularda 30815 nafar bola tarbiyalanmoqda. Bu esa jami bog'cha yoshidagi bolalarning 14,4 foizini tashkil etadi. Ularga 2550 nafar tarbiyachi ta'limgartarbiya bermoqda. Respublikada 36ta «Bog'cha-maktab» tipidagi majmualar tashkil etilgan bo'lib, ularda 2595 nafar maktabgacha yoshdagagi bolalar ta'limgartarbiya olmoqdalar. Shuningdek, boshqa idoralarga qarashli 36 ta bolalar bog'chasida 3404 nafar bola bor.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning qobiliyatini rivojlantirish, tarbiyachilarining bilim-tajribalarini, ularning ijodiy xislatlarini yuksaltirish maqsadida «Sog'lom avlod uchun», «Sog'lomjon-polvonjon», «Sevimli o'yinchoqlar», «Yil tarbiyachisi»

Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'lmi vazirligi bir qancha chet el tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Jumladan, Xalq ta'lmi vazirligi tasarrufidagi «Progress» ta'limgartarbiya markazida o'quvchi o'smirlarimiz xorijiy tillarni o'rganishadi. Uning qoshida «Biznes maktabi»ning Unisef bolalar janj'armasi bilan hamkorlikda «Shûg'ûs» yosh o'smirlar klubining tashkil etilishi bugungi kundagi katta yutuqlarimizdan hisoblanadi.


O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lmi vazirligi va «AKSELS» tashkiloti bilan maktab o'quvchilari orasida o'tkazilayotgan tanlov natijasida keyingi besh yilda respublikamizdan 22 nafar o'quvchi Amerika Qo'shma

# BIZDA 2002 DAR YO'



kutubxona xazinasini boyitishga astoydil harakat qiladilar. Kutubxonamiz zahirasi 11425ta

deb nomlanadi. Uni Jamila Elmuratova, Qunduz O'tamuratovalar olib boradilar.



kitoblarni tashkil qiladi. Davriy matbuotning deyarli barchasiga obunamiz. O'quvchilarining 95 foizi kutubxona a'zosi. Uning o'z kengashi bor. Kengash a'zolari 6 nafar o'quvchidan iborat. Yana ko'plab fan, sport, hunar to'garaklarimiz ishlab turibdi. Ko'rgazmasi sizni qiziqtirgan to'garagimiz «Chevar qo'llar»

Keling, o'quvchilarining o'zlaridan eshitsak.

Nodira Yangiboyeva 7-sinf o'quvchisi:

-Maktabimiz juda yaxshi. Ustozlarimiz muloyim so'z. Ular ko'plab ishlarni amalga oshiryaptilar. Maktab bog'ini tashkil etyapmiz. Kelgusida ko'kalamzorlashtirilgan maktabni

ko'rasiz bu yerda.

**Go'zal Karimova 8-sinf o'quvchisi:**

-Men bo'sh vaqtimda oyimga qarashaman. Biroq, qo'limdan kitobim tushmaydi. Chunki hozirgi vazifam faqat o'qish.

**Nasiba Rimova 8-sinf o'quvchisi:**



**o'quvchisi:**

-Men «Progress»ga qatnab, ingliz tilini chuqur o'rganyapman.

**Umar Karimberdiyev 7-sinf o'quvchisi:**

qiladilar. Respublika miyosida g'olib bo'lib, jahonga chiqishimizni istaydilar.

Sintalarida tahlil olib qaytgan bo'lsa, hozirgi kunda yana 5 nafar o'quvchimiz o'qishini davom ettirmoqda.

«Ingliz tilini o'qitishda o'zgachalik» dasturi asosida 3 nafar o'qituvchi 7 hafta mobaynida xorijiy davlatlarda o'z malaka va bilimlarini oshirib qaytishdi.

Hozirgi kunda respublikamizdagi 56 ta maktabdan tashqari ta'lif muassasalari mavjud bo'lib, ulardagi 2938 to'garakka 37480

o'rirlarni qo'lga kirdi.

Maktab o'quvchilarining sportga bo'lgan qiziqishi yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2001 yilning fevral oyida «Quvnoq startlar», aprel oyida «Olimpiada umidlari» sport musobaqalariga 2000 nafardan ortiq o'quvchilar ishtirok etdilar va g'olib guruuhlar Toshkentda o'tkazilgan yakunlovchi bosqichda qatnashdilar.

Bundan tashqari «Siz tarixni bilasizmi?», «Siz qonunni bilasizmi?», «Prezident asarlari bilimdoni», «Tabiat - bugun,

yengillashtirish to'g'risida» gi qaroriga muvofiq 15000 o'quvchi yozgi ta'tilni Toshkent, Farg'on, Namangan hamda Samarqand viloyatlaridagi bolalar oromgohlarida dam olishdi.

Bundan tashqari har yili Prezident Farmoniga asosan kam ta'minlangan oilalarning 1-4 sinflarda o'qiydigan bolalariga 4 turdag'i



# QORAQALPOQ ELIGA


nafar o'quvchi jalb etilgan. 27 ta sport maktabalarining 985 sekiyasiga 11940 nafar o'quvchi jalb etilgan.

Maktabdan tashqari muassasalar «Sog'lom avlod uchun», «Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati», «Bolalar fondi», «Ekasan» jamg'armalari bilan yaqindan aloqada bo'lib, faoliyat yuritmoqda. Bo'lib o'tgan X - Respublika «Iqtidorli bolalar» anjumanida tuman va shaharlardan 300 dan ortiq o'quvchilar ishtirok etishdi. G'olib bo'lgan 20 nafar o'quvchi Toshkent shahrda o'tkazilgan yakunlovchi bosqichda faxrli

kecha, ertaga» va shu kabi tanlovlardan muntazam o'tkazilib borilmoqda.

O'quvchilarini darsliklar bilan to'liq ta'minlash bo'yicha ham muayyan ijobiy ishlardan amalga oshirilmoqda. Respublika bo'yicha 2-11 sinflar (qoraqalpoq, o'zbek, rus, qozoq va turkman tilida) 272321 nusxa yangi darsliklar sotib olindi.

«Qoraqalpog'iiston Respublikasi va Xorazm viloyatida aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar va suv tanqisligining oqibatlarini



qishki kiyim-kechaklar berilib borilmoqda. 2000 yili suv tanqisligi sababli davlat byudjetidan 13 tumanning maktab o'quvchilariga 250 mln. so'm miqdorida mablag' ajratilib, ular to'liq kiyim-kechaklar bilan ta'minlandilar.

*Qoraqalpog'iiston Respublikasi, To'rtko'li tumanidagi 30-maktab o'quvchisi Odil ABDULLAYEV «Suv osti» manzarasini qog'ozga tushiribdi.*

*Qo'shsahifani  
Umida ABDUAZIMOVA va  
Muharrama PIRMATOVAlar  
tayyorlashdi*

Pulga, davlatga umuman qiziqmayman. Kuniga yarim tonna paxta terardim.

-Uzr, yarim tonna deysizmi?  
Mashinadami?

-Yo'g'ey, qo'lida. Barcha meni «kombayn» derdi. Keyin 2 ta maktab, 2 ta bog'cha, 2 ta tibbiy markaz qurdim. Ista sangiz, ularning yillarini ham aytay. 1995-96 yilda Qo'jon ovulda maktabni qad ko'tartirdim. Unga o'zim quygan 106 ming dona g'isht ketgan. Hozirda 400 bola o'qiyapti. 1987 yili Nukus tumanining Nukus jamaoa xo'jaligida joylashgan Shatloovulgagi maktab



*qurganmisiz?*

-Barcha inshootlarimi o'zim uchun qurilgan deb hisoblayman. Axir u yerlarda farzandlarimiz, xalqimiz bolalari tarbiyalanadilar-ku. Ularning nazari, Ollohnning rizoligi, ota-onamning duosi doimo menga hamroh. To'g'ri, o'zim yashaydigan uyni ham chiroyli, hashamatli qilib olganman.

-*Siz haqingizda ko'plab maqolalar chop etilgan, filmlar suratga olingan...*

-Ha, barcha maqolalarni saqlab qo'yanman. Hatto yoshligimda mol boqqan tayog'imni ham. Maqolalar nafaqat respublika

e 11 arda  
bo'Imaganman.

1964 yili O'zbekfilm «Uchiteliz Nukusa» hujjatlil filmini suratga oldi. Unga Malik Qayumov yuqori baho bergan. 1992-93 yillarda Qoraqalpoq filmi To'raniyoz Alimbetov rejissyorligida «Qayriliq qo'llar va mehr» hujjatlil filmni tasmaga tushirdi. Hozirda O'zbekfilm «Mehr» nomli film olyapti...

-Bularning bari xamir uchidan patir, deb suhbatimizga qo'shildi Nukus tuman xalq ta'limi faxriylarining raisi Jubatxon Begimov. Olloniyoz aka umuman bekor o'tirmaydilar. Hech bo'Imagananda, erta bahorda yoki kuzda ko'pgina nihollar xarid qiladi-da, qo'ni-qo'shilarga ulashadi. Yana gapiraversak, suhbatimiz adog'i hali- veri ko'rinnaydi...

Ha, qadrli qariyalarimiz yuzidagi mehr, sahovatpeshalik va zavqni, qo'llaridagi qadoqni, g'ayratu shijoatni ko'rib, «iloyim sizlaga ko'z tegmasin» dedik. Yoshlar baxtiga omop bo'ling!

## OLQISH MENGA DARMON, -

qurilishiga 60000 g'isht ketdi. 1986 yili Qattag'ar jamaoa xo'jaligida joylashgan Torli bo'limga 50 o'rinci bolalar bog'chasi, 2 xonali tibbiy markaz, 1 ta kutubxona qurbanman. Unga esa 56000 g'isht ketdi. 106 ta oilaning uyini ta'mirlab berganman. Hozirda esa Xo'jaylining mehribonlik uyi, nuroniy qariyalarga atab «Sahovat» nomli 14 hektardan iborat bog' yaratmoqdam.

1998 yili nafaqaga chiqdim. Hozir 70 ga yetib 80 ga sakrash arafasidaman. Hech ham betob bo'Imaganman. Savobishni juda yaxshi ko'raman. Men o'g'lim Ajiniyoz bilan g'isht quysak, imorat qursak va haqini olmasak odamlar rosa mazax qilishardi. Hattoki esini yo'qtoganga chiqarishdi. Lekin men ularga qulq solmadim. Qalbim amriga qulq tutdim.

-*O'zingiz uchun ham imorat*

miqyosida, balki SNG davlatlari ommaviy axborot vositalarida ham chop etilgan. Undan keyingi holni ko'rsangiz. Butun dunyo bo'yicha 2000dan ziyod xatlar yog'ilib keldi uyinga. Ko'plab xorijiy dalatlardan taklifnomalar oldim. Angliyadan kelgan xatda esa meni Ginnes rekordi kitobiga kiritishgani haqidagi ma'lumot bor edi. Bir olam taklifnomalar oltan bo'lsam ham hali chet

# Tengdoshlarin

Poytaxtimizning A. Ikromov tumanidagi 106-maktabda tahlil olayotgan o'quvchilar orasida adabiyot va she'riyat ixlosmandlari talaygina, 1998 yilda yosh ijodkorlarni bir yerga jamlab, adabiyotning sirli olamiga yetaklash maqsadida

«U m i d g'unchalari» **UNMAZ Q'UNCHALARIM**  
nomli to'garak tashkil qildik.

To'garagimiz

a'zolari 6-, 7-, 8 -sinf o'quvchilarini. Men o'quvchilarimga ko'prog kitob o'qishni, she'r yodlashni maslahat beraman. Chunki qanchalar ko'p kitob o'qilsa, kishining so'z boyligi shuncha



**BO'LG'USI CHAMAN**  
ko'p bo'ladi. Keyin esa asta-asta ijod qilishga o'tishadi. Mana sizga yosh ko'ngillarning tuhfasi.  
Ularni birgalikda o'qib, oq yo'l tilaylik.

Marg'uba ISOMIDDINOVA.

Dars boshlandi. O'qituvchi kirdi.

Bolalar:- Assalomu alaykum!

O'qituvchi:- Vaalaykum assalom! Bolalar sizlar kecha bir yomon ish qilbsizlar.

Bolalar: -Nima qilibmiz ustoz?

O'qituvchi:- Xazon yoqibsizlar, suvni iflos qilbsizlar.

Bolalar bir-birlariga qarashdi va o'zlaricha yelka qisib «hech kim ko'rmagan edi-ku!»

bilan birga musaffo havo, o'simlik va hayvonot dunyosini, zilol suvlarimni olib ketaman.

Bolalar tabiatni ketidan ergashib, iltijo qilishadi.

**Bolalar:**

Sen ketarsan ayrilib,  
Bag'ru dilim qon qilib.  
Bunchalar xafa bo'lib,  
Tabiat ozor ko'rib.

Ketma, bog'imdan ketma,  
Ketma, tog'imdan ketma.



Shokirova K.

## TABIAT VA BOLALAR BAHISI

deyishdi.

Bolalar: - Biz hech narsa qilganimiz yo'q, undan keyin bizni hech kim ko'rgani ham yo'q!

O'qituvchi:- Bor. Tabiat ko'rgan! Hozir u siz bilan gaplashadi.

Tabiat: - Bolalar, sizlar meni xafa qildingiz. Bo'ldi, men endi ortiq chiday olmayman. Sizlarni zulmatga qoldiraman. O'zim

Yetsin senga nolalarim,  
Ketma, suvimdan ketma.

**Tabiat:**

Meni sen xor qilding,  
Suvimni iflos qilding.  
Sen meni zaharlading,  
Qalbimni zaharlading.  
Men seni kechirmayman,  
Endi qaytib kelmashman.  
Yetar ozor berganining,  
Jonimdan to'ydirganining.

**Bolalar:**

Bizni kechir tabiat  
Ozor bermaymiz endi.  
Birgalikda hamjihat,  
Do'st bo'lamiz har fursat.

**Tabiat:**

Mayli, gaping rost bo'lsa,  
Men seni kechiraman.  
Tabiatni asrasang,  
Men juda sevinaman.

Kamola Shokirova,  
7- «D» sinf o'quvchisi.

- Ko'cha boshida katta olma daraxti bor edi. Egasi olmalarini terib olardi-da, balandda qolganlari bolalarning ulushi bo'lardi. Olma daraxti baland bo'lgani uchun yuqorida qolgan olmalarni hamma bolalar ham qoqolmasdi.


Ko'p bolalar Azimdan qoqib berishni iltimos qilishardi. Chunki u baland bo'yli, baquvvat bola edi.

Azim maktabdan keldi-da, Orifni chaqirdi. Ikki o'rtoq olma yegani borishdi. Azim olmalarni qoqib, yerga tushganlarni birma-



ko'tarishib yubor.

## QURTLAGAN OLMA



bir yig'ib oldi. Orif ham qoqdiyu ammo tushirolmadi. Orif sekingina o'rtoq idan olma so'radi. Azim og'rinib kichkinagina, qurtlagan olmani berdi. Orif esa shu olmaga ham xursand bo'ldi.

Birozdan keyin. Orifni oyisi chaqirib qoldi.

- Orif tezroq kel, dadang bozordan keldilar, yuklarini

Orif borib qarasa, dadasi bir xalta olma olib kelibdi. Olmalardan eng yaxshisini tanlab, Azimga berdi. Azim noqulay ahvolga tushib qoldi.

-Qo'yaver, olmam bor.

-Buni men berayapman, ol, dedi Orif.

Azim qilgan ishidan uyalib qoldi.

Aziza MUSAYEVA,  
7- «D» sinf o'quvchisi.

## NAVRO'Z

Navro'z keldi, odamlar,  
Baxt ham keldi bu damlar.  
Boychechaklar ochilib,  
Gulga to'ldi bu damlar.



## ONAJONIMGA

Mehr berib ulg'aytgan,  
Mehribonim onajon.  
To'g'ri yo'lni ko'rsatgan,  
Jonajonim onajon.



Sitora  
ISOMIDDINOVA,  
3- «A» sinf o'quvchisi.

faxli o'rinnarni e gallaga nanda, ularning quvonchlariiga sherik bo'ldim...

«Qariyalarni qadrlash yili» deb e'lon qilingan mazkur yilimizda Zuhraxon opa Sultanova rahbarlik qilayotgan «Yosh rassomlar» to'garagi a'zolarining ishlari yanada ko'paygan. Bo'lajak ko'rik-tanlov larga qizg'in hozirlik ko'rayotgan ustoz va shogirdlarga omadlar tilaymiz.

XISMOLOVA,  
Maktab ma'naviy,  
ma'rifiy, tarbiyaviy  
ishlar bo'yicha  
direktor  
o'rinosari.

## O'QUVCHIN HAM BARZANZIM MENING

Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi 13-o'rta maktabda tahlil oladigan o'quvchilarining ustozlardan omadlari chopgan. Ularga o'z kasbining haqiqiy fidoiylari bo'lmish qirqdan ziyod muallimalar saboq berishadi. Maktabda olib borilayotgan o'quv tarbiyaviy ishlari ham havas qilsa arziguek. O'quvchilarining ayniqsa, matematika fani o'qituvchisi Muhabbat Abdullayeva, mehnat ta'limi fani ustozasi Nurxon Umarova, ona tili va adabiyot

fanidan saboq beradigan muallimlari Mahfuzaxon Kamolovalarga mehrlari baland. Tasviriy san'at va

fanidan saboq beradigan muallimlari Mahfuzaxon Kamolovalarga mehrlari baland. Tasviriy san'at va

bilan o'rganishadi. Bu bejiz emas albatta. Sababi,

Zuhraxon o'z fanining haqiqiy bilimdoni.

Shuningdek, o'quvchilar qalbiga to'g'ri yo'l topa bilgan. Ustoz tashabbusi bilan har oyda bir marta «Yosh rassomlar» ko'rik-tanlovlarini turiladi.

yutuqlarini ham, kamchiliklarini ham o'zimniki deb bilaman. «Onalar va bolalar yili» munosabati bilan o'tkazilgan ko'rik-tanlovda qatnashgan o'quvchilarimdan Xolida Matkarimova, Ilyos Sotvoldiyevlarning ishlari tumar va viloyat bosqichlarida

1. We know him as Indiana Jones, we know him as a hero of "Star warriors", who is he?

- A. Bruce Willis
- B. Harrison Ford
- C. Jerry Moore
- D. Al Capone

2. She is one of main characters in James Cameroons "Titanic", Her name is .....

- A. Jodi Foster
- B. Meryl Strip
- C. Kate Winslet
- D. Leonor Varela

3. There is no actor or producer who did so many things for the development and prosperity of Indian movies as him. He stars in "Mister 420", in "Sangam" as Sundar Khanna, in "My name is Joker". His name is .....

- A. Amitabh Bachan
- B. Rajendra Kumar
- C. Raj Kapoor

4. "I will come back" - that is a famous phrase from James Cameroon's film of 90's. This film's name is .....

- A. Total recall
- B. Titanic
- C. Terminator
- D. Rambo

5. She was one the most

**Aziz o'quvchilar!**  
Bugungi darsimizda sizlarning jahon kinosiga oid bilimlaringizni test orqali sinab ko'ramiz.

Menimcha, kinoni sevmaydigan, undan zavq olmaydigan, uni ko'rib hordiq chiqarmaydigan inson kamdan-kam uchrasa kerak.

Marhamat, jahon kinosiga oid bilimingizni sinab ko'ring!

popular and beautiful actresses of Indian movie in 90's. Unfortunately, she died tragically in 1993. Her name is .....

A. Madhuri

B. Aisha

C. Divya

D. Kajol

6. Famous Indian actor Sanjay Datt is a son of famous actress .....

A. Nargis

B. Vajayanti Mala

C. Hema Malini

D. Latamangeshkar

7. He was born in 1930 and died in 1974.

He was a famous Chinese actor and master of kung-fu. His name is ....

A. Jackie Chan

B. Bruce Lee

C. Choy Hu

D. Chu Lee

8. Charlie Chaplin produced many interesting ..... films.

A. comedian

B. historical

C. western

D. musical

9. Buster Kitten was an .....

A. artist

B. actor

C. actress

D. astronaut

10. Ibrahim Tatlis is an actor and .....

A. sportsmen

B. singer

C. dancer

D. painter

11. Turkan Shoray is a famous ..... actress.

A. Indian

B. Turkish

C. Nepal  
D. Bangladesh

16. "Coffee of love" is Colombian film, the name of a hero in this film is .....

A. Gabiota

B. Maria

C. Mariana

D. Clara

17. "Morena Clara" is a ..... film.

A. Brazilian

B. Venezuelan

C. Peruan

D. Mexican

18. Yuriy Nikulin especially stars in..... films.

A. historical

B. comedian

C. tragical

D. musical

19. Leonardo Di Caprio stars in .....

A. Beach

B. The Mask

C. Rambo

D. Heat

20. The most famous annual award for movies in America is called .....

A. Oscar

B. Grammy

C. Nica

D. Zamin

**Shohruh KARIMBEK tayyorladi.**

## RANG-BARANG, ANTIQA, TEMIRDAN ISHLANGAN KITOBLAR

Gabrovo shahridagi satira va yumor uyida temirdan ishlangan antiqa kitob saqlanadi. Uning hajmi 18x22 santimetr bo'lib, og'irligi 4 kilogrammi tashkil etadi. Kitobni Vratsida istiqomat qiluvchi Angel Kostov ishlagan. 22 sahifadan iborat metalli kitobda Gabrovoning eng mashhur hazil va maqollari o'rinn olgan.

Amriko nashriyotlaridan birida chop etilayotgan kitoblar endilikda o'z mavzusi bo'yicha bo'y taratadi, ya'ni kitob dengiz hayotiga bag'ishlangan bo'lsa, undan dengiz o'tlarining hidi, gullarga bag'ishlagan bo'lsa, jasmin va nastarin hidi taraladi. Buning uchun xushbo'y taratuvchi moddalar bosmaxona bo'yog'iga qo'shib chop etiladi.

## QORONG'UDA HAM O'QILADI

Hozirgi vaqtida har bir otona ham kichkintoyini tezroq uxlatalish uchun alla aytmaydi yoki ertak aytib bermaydi. Shunga qaramay, amriqolik bir guruh mutaxassislar

bolalarni uxlatalishning bir yo'lini topishdi. Kaliforniyadagi Randai Xaus nashriyoti qorong'uda ham o'qish mumkin bo'lgan ertak kitoblarni nashr etdi. Qorong'uda ham ko'zga tashlanuvchi o'rdak nomli birinchi kitobchada o'rdak va kichik o'rdakchalar sarguzashtlari hikoya qilinadi. U shu darajada ommalashib ketdiki, do'kon peshtaxtalarida uning o'rniga yulduzlar haqida hikoya qiluvchi «Tunggi osmon» nomli ikkinchi kitobcha paydo bo'ldi.



Shifokorlarning ta'kidlashlaricha, sahilgarga yorug'lik beruvchi xomashyoning kishi sog'lig'iga hech qanday zarari yo'q ekan.

## O'QIB BO'LIP, YEYISHINGIZ MUMKIN

Yaponiyada chiqarilayotgan bu kitob varaqlari shirin xamirdan yasalgan va pishirilgan bo'lib, unda sarguzasht asarlar chop etiladi. Xuddi kitobga o'xshatib muqovalanadi. Kitob 3-5 betdan iborat risola shaklida chiqadi. Uni bosishda bosmaxona bo'yog'i o'rniga maxsus taom qorishmasi ishlataladi. Uning mazasi taxirroq bo'lib, organizm uchun zararsizdir. Bu

kitoblarni kitobxon o'qib bo'lgach, ovqat o'rnida yeyishi mumkin. **Baxtiyor BAHODIR o'g'li, TDMI IMF fakultetining 1- kurs talabasi to'pladi.**

Hayitboy Norboyev, Xorazm viloyati, Urganch Davlat universitetida musiga ta'limi va estetik tarbiya kafedrasi o'qituvchisi. 1996 yil qo'shiqlarida «Diyor madhi», Respublikada bo'lib o'tgan bastakorlar ko'rik tanlov g'olib. Bolalar uchun har xil mavzuda qo'shiqlar yaratadi. Quyida bastakorning A.Po'latov she'riga bastalangan «Onajonim onajon» qo'shig'inisizlarga havola etamiz.

## ONAJONIM ONAJON

Tezda ulg'ay deb bolam,  
Duo qiladi onam.  
Erkalaydi, silaydi,  
Onajonim onajon.

### Naqarat:

Onajonim siz gulzorim,  
Siz quyoshning nurisiz.  
Oq sut bilan jon baxsh etgan,  
Yer yuzining gulisiz.

Olam uzra nur quyosh,  
Ulug' zot, usta naqqosh.  
Har ishga bergan bardosh,  
Onajonim onajon.

### Naqarat:

Yosh avlodmiz baxtiyor,  
Mehrimiz olamcha bor.  
Har bir ishga biz tayyor,  
Onajonim onajon.




## QALAM VA QOG'oz

G'amlarga cho'lg'ansa agar xayollar,  
Azobga tashlasa meni dunyolar,  
Ko'ngildan to'kilsa dardli navolar,  
Faqat najot kutgim qog'oz, qalamdan.

Ruhim samolarni kezar besamar,  
Ibtidodan umrim poyoni qadar,  
Belimga bog'lanar ilohiy kamar,  
Faqat najot kutgim qog'oz, qalamdan.

Oynisa ESHMURODOVA,  
Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi 59  
- maktab o'quvchisi.



## DADAJONIMGA

Qani endi hammasi bir tush bo'lsa-yu  
Aziz dadajonim qaytib kelsalar.  
Sog'inchlar azobi qiyinamas shunda,  
Mening mehribonim qaytib kelsalar.

Tongda ketgan oy ham tunda qaytadi,  
Quyosh ham har tongda qaytadi takror.  
Ammo dadajonim qaytmaydi aslo,  
Borsa kelmas degan shunday maskan bor.

Munavvar bir tongda ko'zimni ochsam,  
Qoshimda o'tirgan bo'lsaydi dadam.  
Bularning barisi bir tush edi, deb,  
Boshimni silasa mehribonganam.

Tolib INOG'OMJONOVA,  
Poytaxtdagi 81 - maktabning  
6 - sinf o'quvchisi.

## “ISRIQ CHOY”

Kechki ovqat payti. Birdan chiroq o'chib qoldi. Shu payt gazda choy qaynab qoldi. Buvimlar akamga choy damlab kel, dedilar. Akam choy keltirganda, buvim piq-piq kula boshladilar. Bilsak,

akam choy o'rniqa bankadagi maydalangan, quritilgan isiriqni solib, choy damlab kelgan ekan...

Sadoqat  
MAXPIRALIYEVA,  
5 - «G» sinf o'quvchisi.

Bir kuni buzog'imga suv berish uchun og'ilxonaga kirdim. Chiroq yo'qligi bois, og'il ichi qorong'u edi. Ichkariga kirishim bilanoq buzoq menga urilib ketdi va chelakdag'i

s u v i m **HARAYOTGAN ORQA**  
t a g i m g a to'kilib ketdi. Oyog'im sirpanib yiqilib tushdim. Bir zumda kiyimlarim shalabbo, loy bo'lib ketdi. Shu payt birdan kulgu ovozini eshitdim. Qarasam, buzoqning orqa tomonida akam ketmonni ushlab, irshayib turibdi. Buzoqqa suv berayotganimda uning orqa tomonida turib, men tomonga itarib yuborgan ekan.

Xo'rligim kelib, yig'lab

yubordim. Shundagina akam qilgan «hazil» noo'rin ekanini anglab, meni yupatmoqchi bo'ldi:

«Yig'lama ukajon, ust-boshingni almashtirib olasan» deya menga yaqinlashayotgan edi, o'zi ham loyga sirpanib, yiqilib tushdi va hammayog'i jiqqa loy bo'ldi. Endi kulish navbati meniki edi. O'shanda «Hazil ham o'z o'rni bilan» degan hikmatli so'zning nechog'li to'g'ri ekanini anglab yetdim.

Bahromjon USMONOV, 5 - «G» sinf o'quvchisi.

## TOPISHMOQLAR

Jiz-jiz etadi,  
Tezda uchib ketadi.

\*\*\*



Ikkita qo'li bor,  
Yuztacha tishi bor.

\*\*\*

Ona-bola yemas, ichmas  
Dasturxonidan nari ketmas.

\*\*\*

U yoni qiltiq, bu yoni qiltiq,  
O'rtasi tirtiq.

\*\*\*

O'zi bir gaz,  
Hukmi ming gaz.

\*\*\*

Ho'l yopdim,  
Quruq chiqdi.

\*\*\*

Yesangiz kirsillaydi,  
Yorsangiz tarsillaydi.

\*\*\*



Dildora SHOKARIMOVA,  
Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
222 - maktabning  
4 - «V» sinf o'quvchisi.

## Kunlardan bir kun

## YEMAGAN SOMSAGA...

Yoshligimda juda shirinlikka o'ch edim. Shuning uchun ham ko'p tishim og'riyi. Bir kuni buvijonim nafaqa pulini oldilar. Shunda men shokolad olib berasiz, deb

turgan edi. Dadam ukam deb o'ylab,unga tanbeh berdilar-da, tashqariga chiqib ketdilar. «Yemagan somsaga pul to'layotgan» ukamning xo'rliги kelib, yig'lay boshladidi. Men esa gunohimni yuvish uchun buvim olib bergen shokoladni unga berdim. Shunday qilib, ne mashaqqtalar bilan undirgan shirinligim o'zimga nasib qilmadi.

Nazorat TO'LQINOVA,  
5 - «V» sinf o'quvchisi,  
Farg'ona viloyati,  
Bag'dod tumanidagi  
1 - umumta'lum  
maksiabi o'quvchilar.


O'TGAN 5- SONDAGI  
BOSHQOTIRMANING JAVOBLARI

- Eniga: 1.Gagarin. 6.Gamma.
- 7.Dovon. 18.Sabzi. 19.Yetmak.
- 20.Granata.
- Bo'yiga: 4.Ralli. 5.Kongo.
- 8.Alabama. 9. «Avazxon»
- 14.Tuman. 15.Istak.

Yoylar bo'yicha:  
2.Grammatika. 3.Radioaloqa.  
10.Mato. 11.Azim. 12.Olma.  
13. A v t o m a t i k a .  
16.Xrizontema. 17.Azon.

Kamola ORIPOVA.

## Bizning te'garkerak

CHAP YONI  
BILAN TURGAN

Nor ismli bir bola,  
Ishi chala, poyma-poy.  
Qand soldi piyolaga,  
O'zi ichib bo'lgach choy.

Yuvinish uchun kirib,  
Suvni katta ochibdi.  
Yuzin yuvmay, erinib,  
Tashqariga ochibdi.

Hamma hayron: «Bu ne hol,  
Nega bunday yuribdi?»  
Keyin bildik sababin,  
Chap yon bilan turibdi.

Dildora RIXSIYEVA,  
Toshkent shahar, Sobir Rahimov  
tumanidagi  
119 - maktabning  
6 - sinf o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining  
gazetasi

Muassislar:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

## BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA  
TAHIR HAY'ATI:

Shuhrat AHMEDOV,  
Jamiliddin FOZILOV,

Oynisa MUSURMONOVA,  
Qahramon QURONBOYEV,

Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinnbosari),  
Po'lat MO'MIN,

Mukarrama MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir  
«Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib  
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.

“Sharq” nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida 46.291  
nusxada ofset usulida  
bosildi.

Korxona manzili:  
“Buyuk Turon”  
ko'chasi, 41.  
Buyurtma № Г-165

Gazetani  
Muhabbat  
MAXSUDOVA  
sahifalandi.  
Navbatchi:  
Muharrama  
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish  
tartibi № 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi,  
30-uy.

Tel: 144-62-34.  
144-63-08